

**YADRO FIZIKASI INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.FM/T.33.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

YADRO FIZIKASI INSTITUTI

TURMANOVA ULBOSIN MAXMUTOVNA

**YUQORI HARORATLI O‘TA O‘TKAZUVCHAN KUPRATLARDA
BOZE-SUYUQLIKLI O‘TA O‘TKAZUVCHANLIK VA MAGNIT
MAYDON KIRISH CHUQURLIGI**

01.04.07 – Kondensirlangan holat fizikasi

**Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по физико-математическим наукам**

**Content of the dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
physical and mathematical sciences**

Turmanova Ulbosin Maxmutovna

Yuqori haroratli o‘ta o‘tkazuvchan kupratlarda Boze-suyuqlikli
o‘ta o‘tkazuvchanlik va magnit maydon kirish chuqurligi..... 3

Турманова Улбосын Махмутовна

Бозе-жидкостная сверхпроводимость и глубина проникновения
магнитного поля в ВТСП купратах..... 23

Turmanova Ulbosin Makhmutovna

Bose-liquid superconductivity and the penetration depth of the
magnetic field in HTCS cuprates..... 43

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 47

**YADRO FIZIKASI INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.FM/T.33.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

YADRO FIZIKASI INSTITUTI

TURMANOVA ULBOSIN MAXMUTOVNA

**YUQORI HARORATLI O‘TA O‘TKAZUVCHAN KUPRATLARDA
BOZE-SUYUQLIKLI O‘TA O‘TKAZUVCHANLIK VA MAGNIT
MAYDON KIRISH CHUQURLIGI**

01.04.07 – Kondensirlangan holat fizikasi

**Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/FM1114 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Yadro fizikasi institutida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.inp.uz) va "Ziyonet" axborot-ta'lim tarmog'ida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

| | |
|----------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Ilmiy rahbar: | Djumanov Safarali fizika-matematika fanlari doktori, professor |
| Rasmiy opponentlar: | Jumaev Mustaqim Rofiyevich fizika-matematika fanlari doktori, professor Muxtarov Adil Pazilovich fizika-matematika fanlari nomzodi, katta ilmiy xodim |
| Yetakchi tashkilot: | Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti |

Dissertatsiya himoyasi Yadro fizikasi instituti huzuridagi DSc.02/30.12.2019.FM/T.33.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil _____ soat _____ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100214, Toshkent shahri, Ulug'bek qo'rg'oni, Yadro fizikasi instituti. Tel.: (+99871) 289-31-41; faks: (+99871) 289-36-65; e-mail: info@inp.uz).

Dissertatsiya bilan Yadro fizikasi institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100214, Toshkent shahri, Ulug'bek qo'rg'oni, YaFI. Tel.: (+99871) 289-31-19.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "_____" _____ da tarqatildi.
(2025-yil "_____" _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

M.Yu. Tashmetov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
raisi, f.-m.f.d., professor

O.R. Tojiboyev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
ilmiy kotibi, f.-m.f. PhD, katta ilmiy xodim

S.B. Igamov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash huzuridagi ilmiy seminar raisi,
f.-m.f.d., katta ilmiy xodim

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Soʻnggi paytlarda yuqori haroratli oʻta oʻtkazuvchan kupratlarda oʻta oʻtkazuvchanlik mexanizmlarini tavsiflovchi nazariyalarni rivojlantirish, ularni zamonaviy oʻta oʻtkazuvchan materialshunoslik fanini rivojlantirish uchun qoʻllash kondensirlangan holat fizikasining eng dolzarb yoʻnalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu sohada tadqiqotlar soni koʻp boʻlishiga qaramay, yuqori haroratli oʻta oʻtkazgichlar fizikasini oʻrganishga qiziqish ortib bormoqda. Bu, avvalo, yuqori haroratli oʻta oʻtkazuvchan materiallar allaqachon texnika va energetikaning turli sohalarida keng qoʻllanilayotgani bilan bogʻliq. Biroq oʻttiz yildan ortiq davom etgan legirlangan yuqori haroratli oʻta oʻtkazuvchan kupratlarning jadal nazariy va eksperimental tadqiqotlaridan soʻng ham, ulardagi oʻta oʻtkazuvchanlikga oʻtish kritik harorati T_c dan past boʻlgan ushbu materiallarning noodatiy yuqori haroratli oʻta oʻtkazuvchanligi tabiatini tushunishda hali ham toʻliq aniqlik yoʻq.

Bardin-Kuper-Shriffer nazariyasi (BKSh) bilan tavsiflangan oddiy oʻta oʻtkazgichlarda London magnit maydonining oʻta oʻtkazgichga kirish chuqurligi $\lambda_L(T)$ ning haroratga bogʻliqligi energiya tirqishi chekli boʻlgan kvazizarralarning tirqishsiz uygʻonish spektri bilan aniqlanadi. Yuqori haroratli kupratli oʻta oʻtkazgichlarning ushbu BKSh simon oʻtkazgichlardan farqli oʻlaroq, $\lambda_L(T)$ ning xatti-harakati anomal hisoblanadi, chunki $\lambda_L(T)$ harorat T ga noodatiy bogʻliqliklarni namoyon qiladi, ularning tabiati hali nomaʼlum va faol tadqiqotlar mavzusi boʻlib qolmoqda. Shuning uchun, kupratlardagi noodatiy oʻta oʻtkazuvchanlik odatdagi Fermi-suyuqlikli BKSh turidagi oʻta oʻtkazuvchanlikdan tubdan farq qiladi va Boze-suyuqlikli oʻta oʻtkazuvchanlik va noodatiy bozonli Kuper juftlarining oʻta oquvchanligi bilan bogʻliq deb taxmin qilinadi. YuHOʻOʻ kupratlar uchun BKSh oʻta oʻtkazuvchanlik nazariyasi bashoratlariga mos kelmaydigan noodatiy haroratga bogʻliqlik $\lambda_L(T)$ xosdir. Kupratli YuHOʻOʻ materiallar kichik Fermi energiyalariga ega $\varepsilon_f \ll 1eV$ va kuchli elektron-fonon bogʻlanish bilan tavsiflanadi, bu ularni noodatiy oʻta oʻtkazgichlarga aylantiradi. YuHOʻOʻ kupratlarda T_c haroratidagi oʻta oʻtkazuvchanlik oʻtishi BKSh-simon fazaviy oʻtish emas, balki oʻta oquvchan 4He dagi λ -oʻtish kabi λ -simon fazaviy oʻtish ekanligi va ulardagi $\lambda_L(T)$ harorat bogʻlanishlari $T \ll T_c$ haroratida ham, T_c harorati yaqinida ham BKSh-model bashoratidan keskin farq qilishi tajribada aniqlangan. Bu esa ushbu YuHOʻOʻ materiallarda fundamental fizika nuqtayi nazaridan katta qiziqish uygʻotadigan Boze-suyuqlik oʻta oʻtkazuvchanligini amalga oshirish mumkinligini koʻrsatadi.

Oʻzbekiston Respublikasida kondensirlangan holat fizikasini, xususan, nanostrukturali, oʻta oʻtkazuvchan va yarimoʻtkazgich materiallar fizikasini rivojlantirishga, shuningdek, ushbu sohada jahon darajasidagi fundamental tadqiqotlarni amalga oshirishga katta eʼtibor qaratilmoqda. Mamlakatning ilmiy-texnologik taraqqiyoti uchun muhim ahamiyatga ega boʻlgan bunday tadqiqotlarning

ustuvor yo‘nalishlari “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da¹ o‘z aksini topgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 1-martdagi PF-4512-son “Muqobil energiya manbalarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son “Fanlar akademiyasi faoliyatini, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2019-yil 21-noyabrdagi PQ-4526-son “O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Yadro fizikasi institutining ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlarida hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining II. “Energetika, energiya tejankorligi va muqobil energiya manbalari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Hozirgi vaqtda yuqori haroratli o‘ta o‘tkazuvchan kupratlarda o‘ta o‘tkazuvchanlikni tadqiq qilish butun dunyo bo‘ylab ko‘plab olimlar tomonidan olib borilayotgan nazariy va eksperimental ishlarning predmeti hisoblanadi, masalan, amerikalik (R. Prozorov, L. Krusin-Elbaum, L. Drabeck, T. Hylton, K. Char, M.R. Beasley, W.N. Hardy, D.A. Bonn, D.C. Morgan, R. Liang, K. Zhang, J. Rammer va boshqalar), buyuk britaniyalik (A.S. Alexandrov va boshqalar), italyalik (L. Pietronero va boshqalar), kaliforniyalik (J.R. Cooper, C.T. Chu, L.W. Zhou, B. Dunn, G. Grüner va boshqalar), germaniyalik (E.W. Scheidt, C. Hucho, K. Lüders, V. Müller va boshqalar), kanadalik (M. Biderang, R. Molavi, A. Damascelli, A. Kapitulnik va boshqalar), belgiyalik (J.T. Devreese va boshqalar), shvetsariyalik (S. Strässler, K.A. Müller, R. Khasanov, H. Keller va boshqalar), xitoylik (H.C. Yang, B.D. Yao, H.E. Horng va boshqalar), koreyalik (J. Kim, A. Akbari va boshqalar), yaponiyalik (K. Kanoda, K. Akiba, K. Suzuki, T. Takahashi va boshqalar), hindistonlik (J.P. Carini va boshqalar), rossiyalik (A.I. Larkin va boshqalar) va o‘zbekistonlik olimlar (S. Dzhumanov, E.M. Ibragimova, U.T. Kurbanov, B.Ya. Yavidov, P.J. Baimatov, D.R. Jurayev, E.X. Karimboyev, O.K. Ganiyev, Sh.S. Jumanov, B. Abdullayev va boshqalar) hamda boshqa mutaxassislar tomonidan amalga oshirilgan.

Ushbu tadqiqotlar natijasida yuqori haroratli kupratlarda T_c dan past bo‘lgan ikkita harorat oralig‘ida $\lambda_L(T)$ ning haroratga bog‘liqligi aniq farqlanadigan xususiyatlarga ega ekanligi aniqlandi. Bu xususiyatlarni tushuntirish uchun turli nazariy modellar (S. Djumanov, L. Pietronero, S. Strässler, C. Grimaldi va boshqalar tomonidan) taklif etildi. O‘ta o‘tkazuvchan kupratlar past Fermi energiyasi $\varepsilon_f \ll 1$ eV va kuchli elektron-fonon o‘zaro ta’siri bilan tavsiflanishi sababli, ular noodatiy (BKSh-simon bo‘lmagan) o‘ta o‘tkazgichlar turkumiga kiradi. Ko‘pgina tajribalar shuni ko‘rsatdiki, yuqori haroratli kupratlarda T_c dan past haroratgacha bo‘lgan keng

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-yanvardagi PF-60 sonli “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi” farmoni

harorat oralig'ida $\lambda_L(T)$ ning haroratga bog'liqligi BKSh nazariyasining bashoratlariga mos kelmaydi.

Biroq ko'p sonli nazariy va eksperimental tadqiqotlarga qaramay, noodatiy o'ta o'tkazuvchan kupratlarda past $T \ll T_c$ haroratlarda ham, T_c ga yaqin yuqori haroratlarda ham $\lambda_L(T)$ ning tabiati yetarlicha o'rganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy tadqiqot muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Yadro fizikasi instituti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-noyabrda PQ-4526-sonli qarori asosida 2020-2024-yillarga mo'ljallangan ilmiy tadqiqot ishlari dasturi yuzasidan "Yuqori haroratli o'ta o'tkazuvchan kupratlarning elektron nazariyasi va uning ushbu tizimlarda dielektrik/metall hamda o'ta o'tkazuvchan fazalarning hosil bo'lishi va nanoo'lchamli ajralishini tadqiq qilishda qo'llanilishi" mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi uch o'lchamli Boze-suyuqlik nazariyasi doirasida Boze-suyuqlikli o'ta o'tkazuvchanlik nazariyasini rivojlantirish, past va yuqori haroratlarda legirlangan YuHO'O' kupratlarga London magnit maydoni kirish chuqurligining noodatiy haroratga bog'liqligini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

legirlangan YuHO'O' kupratlar uchun uch o'lchamli (3D) Boze-suyuqlikli o'ta o'tkazuvchanlik nazariyasining qo'llanilishini va ulardagi noodatiy yuqori haroratli o'ta o'tkazuvchanlikni tavsiflash uchun Fermi-suyuqlik (BKSh-simon) nazariyalariga nisbatan afzalliklarini o'rganish;

tadqiq etilayotgan yuqori haroratli kupratli o'ta o'tkazgichlarda T_c^* haroratdan past va yuqori haroratlarda, aynan $T_c^* < T < T_c$ va $0 \leq T \leq T_c^*$ ikki harorat oralig'ida uch o'lchamli Boze-suyuqlikli o'ta o'tkazuvchanlikning ikki xil (tirqishli va tirqishsiz) rejimlari mavjud bo'lishi imkoniyatlarini o'rganish;

yuqori haroratlarda (T_c ga yaqin) $\lambda_L(T)$ ning anomal eksponensial haroratga bog'liqligi va past haroratlarda $\lambda_L(T)$ ning xarakterli darajali bog'liqligi uch o'lchamli Boze-suyuqlikli o'ta o'tkazuvchanlik nazariyasining bevosita natijasi ekanligini aniqlash;

yuqori haroratli o'ta o'tkazuvchan kupratlarda $\lambda_L(T)$ ning noodatiy eksponensial haroratga bog'liqligiga olib keladigan o'ta oquvchan Boze-suyuqlikning uyg'onish spektridagi energetik tirqishning rolini aniqlash va ulardagi $\lambda_L(T)$ ning noodatiy darajali haroratga bog'liqligida o'ta oquvchan Boze-suyuqlik spektrida bunday tirqishning mavjud bo'lmasligi muhimligini aniqlash;

turli YuHO'O' kupratlarda London magnit maydon kirish chuqurligining nazariy hisoblangan ($\lambda_L(T)/\lambda_L(0)$ va $\lambda_L^2(0)/\lambda_L^2(T)$) haroratga bog'liqliklarini yuqori haroratli ($YBa_2Cu_3O_{7-\delta}$, $YBa_2Cu_3O_{9-\delta}$, $YBa_2Cu_3O_{6.95}$ va $GdBa_2Cu_3O_{7-\delta}$) kupratli o'ta o'tkazgichlarda ($\lambda_L(T)/\lambda_L(0)$ va $\lambda_L^2(0)/\lambda_L^2(T)$) haroratga bog'liqlik bo'yicha mavjud eksperimental ma'lumotlar bilan taqqoslash.

Tadqiqotning obykti sifatida yuqori haroratli legirlangan $GdBa_2Cu_3O_{7-\delta}$ kupratlari va itterbiy asosidagi kupratlarning turli namunalari $YBa_2Cu_3O_{7-\delta}$, $YBa_2Cu_3O_{9-\delta}$ va $YBa_2Cu_3O_{6.95}$ olingan.

Tadqiqotning predmetini kuchli o'zaro ta'sirlashuvchi elektron-fonon tizimi, yuqori haroratli o'ta o'tkazuvchan kupratlarda Boze-suyuqlikli o'ta o'tkazuvchanligi va London magnit maydon kirish chuqurligining haroratga bog'liqligi tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari: kvant va statistik mexanika hamda qattiq jism nazariyasi, yuqori haroratli o'ta o'tkazuvchanlikning uch o'lchamli (3D) Boze-suyuqlikli modeli, raqamli usullar, kompyuter grafikasi (Mathematica, OriginPro, CorelDRAW).

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uch o'lchamli Boze-suyuqlikli o'ta o'tkazuvchanlik nazariyasi legirlangan YuHO'O' kupratlar uchun BKSh-simon Fermi-suyuqlikli nazariyalariga nisbatan ushbu kupratli o'ta o'tkazuvchan materiallarda yuqori haroratli o'ta o'tkazuvchanlikni ta'riflashda eksperimental natijalar bilan yaxshi mos kelishi ko'rsatilgan;

ikki turli xil $T_c^* < T < T_c$ va $0 \leq T \leq T_c^*$ harorat oraliqlarda yuqori haroratli kupratli o'ta o'tkazgichlarning uch o'lchamli Boze-suyuqlikli o'ta o'tkazuvchanligining ikki xil (tirqishli va tirqishsiz) rejimlari mavjud bo'lishi mumkinligi isbotlangan;

yuqori haroratli o'ta o'tkazuvchan kupratlarda $T > T_c^*$ haroratida o'ta oquvchan Boze-suyuqligining uyg'onish spektrida energetik tirqishning ochilishi va uning ushbu materiallarda mavjud bo'lmasligi mos ravishda Gorter-Kazimirning aniqlashtirilgan formulasi bilan ta'riflangan magnit maydoni kirish chuqurligining noodatiy eksponensial va darajali ravishda haroratga bog'liqligida namoyon bo'lishi birinchi marta ko'rsatilgan;

yuqori haroratli o'ta o'tkazuvchan kupratlarda noodatiy uch o'lchamli Boze-suyuqlikli o'ta o'tkazuvchanligi va yangi o'ta o'tkazuvchanlik tartiblanish parametrining haroratga kinksimon bog'liqligi T_c dan past bo'lgan T_c^* xarakterli harorat yaqinida magnit maydoni kirish chuqurligining haroratga g'ayrioddiy kinksimon bog'liqligiga sabab bo'lishi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari:

uch o'lchamli Boze-suyuqligining rivojlantirilgan yondashuvi doirasida magnit maydoni London kirish chuqurligining hisoblangan haroratga bog'liqligi ($\lambda_L(T)/\lambda_L(0)$ va $\lambda_L^2(0)/\lambda_L^2(T)$) past haroratlar sohasida ham ($T < T_c^*$), va yuqori haroratlarda ham ($T > T_c^*$) turli xil YuHO'O' kupratlar uchun eksperimental ma'lumotlar bilan yaxshi mos kelishi aniqlandi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi kvant mexanikasi, kondensirlangan holat nazariy fizikasining zamonaviy usullaridan foydalanganligi va YuHO'O' kupratlarda Boze suyuqligining uch o'lchamli o'ta o'tkazuvchanligi mavjudligi aniqlanganligi, shuningdek, ulardagi magnit maydoni London kirish chuqurligining past - ($\lambda_L(T)/\lambda_L(0)$) va yuqori - ($\lambda_L^2(0)/\lambda_L^2(T)$) harorat bog'liqliklari o'rnatilganligi va ularning eksperimental ma'lumotlar bilan taqqoslanganligi bilan ta'minlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati: Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, ular YuHO‘O‘ kupratlar va boshqa turdosh materiallardagi Boze suyuqligining uch o‘lchamli o‘ta o‘tkazuvchanligi haqidagi fizik tasavvurlarni kengaytirishga yordam beradi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati YuHO‘O‘ kupratlarda energetik tirqishli va energetik tirqishsiz uch o‘lchamli Boze-suyuqlikli o‘ta o‘tkazuvchanlik haqidagi tasavvurlarni rivojlantirishdan iborat. Legirlangan YuHO‘O‘ kupratlardagi Kuper juftlarining ma’lum bir bozon tabiati, shuningdek, Boze suyuqligining o‘ta o‘tkazuvchanligi boshqa turdosh tizimlarda o‘ta o‘tkazuvchanlik va o‘ta oquvchanlikni o‘rganishda keng qo‘llanilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Yuqori haroratli o‘ta o‘tkazuvchan kupratlarda Boze-suyuqlikli o‘ta o‘tkazuvchanlik va London magnit maydoni kirish chuqurligi bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotlar natijalariga asoslanib:

yuqori haroratli o‘ta o‘tkazuvchan kupratlarda uch o‘lchamli Boze-suyuqlikli o‘ta o‘tkazuvchanlik nazariyasini asoslashga oid natijalardan Qizil-qiya gumanitar pedagogika instituti o‘quv jarayonida “Kvant fizikasi” kursi bo‘yicha bakalavriat ta’lim yo‘nalishi doirasida foydalanilgan (Qizil-qiya gumanitar pedagogika institutining 2025-yil 14-apreldagi 126-sonli xatiga asosan). Natijalardan foydalanish talabalarning kondensirlangan holat fizikasining zamonaviy muammolari, xususan, legirlangan yuqori haroratli o‘ta o‘tkazuvchan kupratlarni tavsiflashda ikki rejimli Boze-suyuqlik modelini qo‘llash, noodatiy o‘ta o‘tkazgichlarga London magnit maydonining kirish chuqurligini nazariy sonli hisoblashlarni amalga oshirish haqidagi tasavvurlarini kengaytirish imkonini bergan;

olingan natijalar xorijiy tadqiqotchilar tomonidan ham foydalanilgan (xalqaro ilmiy jurnallarda havolalar: Physical Review B 109, 014512, 2024; Applied Sciences 2025, 15(4), 2225). Ilmiy natijalardan foydalanish o‘ta o‘tkazuvchan energiya kengligining umumiy simmetriyasi uchun mikroskopik hisob-kitoblarga asoslangan magnit maydoni kirish chuqurligi $\lambda(T)$ ning kompleks nazariy ifodasini aniqlashga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Ishning asosiy natijalari 4 ta xalqaro va respublika miqyosidagi anjumanlarda ma’ruza qilinib, muhokama etilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 7 ta ilmiy ish, ulardan 3 tasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini nashr etish uchun tavsiya etilgan nashrlarda, shu jumladan, 2 tasi xorijiy jurnallarda chop qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiya hajmi 121 bet.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan hamda muammoning o‘rganilganlik darajasi yoritilgan. Tadqiqotning maqsadi va vazifalari shakllantirilgan, tadqiqot obyekti,

predmeti va usullari to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan, ilmiy yangilik va amaliy natijalar bayon etilgan. Olingan natijalarning amaliy ahamiyati asoslangan, natijalarning ishonchligi, joriy qilinishi va aprotatsiyasi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan, shuningdek, dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Yuqori haroratli o'ta o'tkazuvchan kupratlarda mavjud o'ta o'tkazuvchanlik mexanizmlari”** deb nomlangan birinchi bobida metallar va legirlangan kupratlarda o'ta o'tkazuvchanlikning kashf etilishi hamda ularning kritik haroratlari evolyutsiyasi haqida ma'lumotlar keltirilgan. O'ta o'tkazuvchan materiallarning asosiy turlari va sinflari, ularning kristall tuzilishlari, birikmalarning nomlari va o'ta o'tkazuvchan holatga o'tish haroratlari ko'rib chiqilgan. Ushbu bobda past haroratli va yuqori haroratli o'ta o'tkazgichlarning kashf etilishi bo'yicha xronologik ma'lumotlar keltirilgan, shuningdek, ularning kristall tuzilishining ba'zi fizik xususiyatlari tavsiflangan. Bu bobda ta'riflanganidek, 1911-yilda o'ta o'tkazuvchanlik hodisasi kashf etilgandan so'ng, keyingi yillar davomida yuqori haroratlarda o'ta o'tkazuvchanlik xossalari ega bo'lgan materiallarni izlash ishlari jadal olib boriladi. Lekin bizga ma'lum bo'lgan barcha metallar, ular asosidagi turli-tuman qotishmalar va kuchli legirlangan yarim o'tkazgichlar juda past temperaturalarda o'ta o'tkazuvchanlik holatiga fazaviy o'tadi. Bunday materiallar uchun $T_c = 23,2 K$ maksimal qiymat Nb_3Ge yupqa pardada olindi va barcha urinishlarga qaramay, o'tish harorati T_c ni oshirishning iloji bo'lmadi, bu qiymat 1986-yilgacha rekord bo'lib qoldi. 1986-yilda Bendorz va Myuller $La_{1.35}Ba_{0.15}CuO_4$ tizimida $35 K$ dan yuqori haroratda o'ta o'tkazuvchanlik xususiyatlarini aniqlaganliklarini ma'lum qilishdi. Hozirda $YBa_2Cu_3O_7$ materialida o'ta o'tkazuvchanlik holatiga o'tish maksimal harorati $T_c \approx 93 K$.

Metallar va kupratli o'ta o'tkazgichlarning xarakterli o'ta o'tkazuvchanlik xossalari aniqlashga bag'ishlangan chop etilgan eksperimental hamda nazariy ishlar tahlil qilingan. Adabiyot ma'lumotlarining tahlili shuni ko'rsatdiki, metallar va kupratlar o'rtasida o'ta o'tkazuvchanlik xususiyatlarida ko'plab farqlar mavjud, ayniqsa, zamonaviy o'ta o'tkazuvchanlik fizikasi nazariyasi doirasida. London kirish chuqurligi λ – bu magnit maydonning o'ta o'tkazgichga kirish darajasini aniqlaydigan o'ziga xos uzunlikdir. Bu kattalik o'ta o'tkazuvchan Kuper juftlari zichligining kvadrat ildiziga teskari proporsional va shuning uchun u o'ta o'tkazuvchan zaryad tashuvchilar zichligi past bo'lgan birikmalarda katta bo'ladi. Kirish chuqurligi haroratga ham bog'liq.

Oddiy o'ta o'tkazgichlarda λ ning temperaturaga bog'liqligi uchun yaxshi yondashuv Gorter-Kazimir empirik formulasi bilan beriladi

$$\lambda(T) = \frac{\lambda(0)}{[1-(T/T_c)^4]^{1/2}}. \quad (1)$$

Metallda $T = 0$ da barcha Kuper elektron juftlari o'ta o'tkazuvchanlik holatida bo'ladi. Oddiy o'ta o'tkazgichlarda $T \rightarrow T_c$ bo'lganda (1) munosabat BKSh nazariyasiga muvofiq (2) ifodaga o'tadi.

$$\frac{\lambda(T)}{\lambda(0)} \sim \left(1 - \frac{T}{T_c}\right)^{-1/2}. \quad (2)$$

Yuqori haroratli kuprat o'ta o'tkazgichlarda magnit maydonining kirish chuqurligi $\lambda_L(T)$ ning haroratga bog'liqligi uning oddiy o'ta o'tkazgichlardagi haroratga bog'liqligidan keskin farq qiladi. YuHO'O' kupratlarda magnit maydonining kirish chuqurligi ancha katta qiymatlarga ega.

Ma'lumki, Bardin-Kuper-Shriffer (BKSh) tipidagi o'ta o'tkazgich haroratga eksponensial bog'liqlik $\lambda_L(T)$ bilan xarakterlanadi. Biroq, T_c dan biroz past bo'lgan energetik tirqishsiz uyg'onish spektriga ega bo'lgan bozon (BKSh emas) o'ta o'tkazgichlar London magnit maydoni kirish chuqurligi $\lambda_L(T)$ ning haroratga darajali bog'liqligi bilan tavsiflanadi. Magnit maydonining o'ta o'tkazgichga kirish xarakterli uzunligini belgilovchi bu kattalik haroratga bog'liq, chunki u o'ta oquvchan zaryad tashuvchilarning zichligi ρ_s bilan aniqlanadi, bu zichlik harorat T ortishi bilan kamayadi. YuHO'O' kupratlarda $\lambda_L(T)$ haroratga bog'liqlik o'ta oquvchan tashuvchilar (kuper juftlari) ning bozon tabiatiga ham bog'liq, chunki bu yuqori haroratli o'ta o'tkazuvchan materiallar Boze-suyuqlik o'ta o'tkazuvchanlik rejimida bo'lganligi sababli, o'ziga xos haroratga bog'liqlik bozon kvazizarralarining ham tirqishsiz, ham tirqishli uyg'onish spektri bilan bog'liq.

Fermi energiyasining katta qiymatlari $\varepsilon_f > 1 \text{ eV}$ va kuchsiz elektron-fonon bog'lanishga ega bo'lgan oddiy metallarda kuchsiz bog'langan (fermion) Kuper juftlarining va Fermi-suyuqlik (BKSh) o'ta o'tkazuvchanligining hosil bo'lishi T_c da bir vaqtning o'zida sodir bo'ladi. Bu hodisalar BKSh nazariyasi tomonidan yaxshi tavsiflanadi. Biroq Fermi energiyasining kichik qiymatlari $\varepsilon_f \ll 1 \text{ eV}$ va kuchli elektron-fonon bog'lanishga ega bo'lgan legirlangan kuprat o'ta o'tkazgichlar noodatiy BKSh turidagi bo'lmagan o'ta o'tkazgichlar sinfiga kiradi. Eksperimental tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, T_c dan past qiymatlargacha bo'lgan barcha harorat oralig'ida yuqori haroratli kupratlarda haroratga bog'liqlik BKSh nazariyasining bashoratlariga mos kelmaydi. Bundan tashqari, $\lambda_L(T)$ uchun ba'zi boshqa eksperimental natijalar BKSh nazariyasi tomonidan bashorat qilingan eksponensial qonundan sezilarli darajada farq qiladi, garchi past haroratli eksperimental ma'lumotlar ushbu nazariyaga mos keladi. BKSh bo'lmagan kupratli o'ta o'tkazgichlarda $\lambda_L(T)$ ning $T \ll T_c$ past haroratlarda va T_c ga yaqin bo'lgan yuqori haroratlardagi tabiati haqidagi savollar ochiq qolmoqda.

Ushbu bobda o'ta o'tkazuvchanlikning turli sinflarga tegishli bo'lgan fenomenologik nazariyalari ham ko'rib chiqilgan. London nazariyasi, Ginzburg-Landau o'ta o'tkazuvchanlik nazariyasi va Bardin-Kuper-Shriffer mikroskopik nazariyasining (BKSh) asosiy qoidalari keltirilgan. Bundan tashqari, yuqori haroratli kuprat o'ta o'tkazgichlarda o'ta o'tkazuvchanlik mexanizmlarini tavsiflovchi turli nazariy modellar tahlil qilingan.

Dissertatsiyaning **“Legirlangan yuqori haroratli kupratli o'ta o'tkazgichlarda Boze-suyuqlikli o'ta o'tkazuvchanlik”** deb nomlangan ikkinchi bobida legirlangan yuqori haroratli o'ta o'tkazuvchan kupratlarda uch o'lchamli (3D) Boze-suyuqlikli o'ta o'tkazuvchanligini va bu 3D sistemalarda tortishuvchi

bozonlarning farqlanuvchi bir zarrachali va juft kondensatsiyasini tadqiqiga bag'ishlangan. Ideal Boze-gazda $T = 0$ da barcha zarralar nol impuls holatida bo'ladi, $0 < T < T_{BEK}$ harorat oralig'ida esa aksariyat zarralar hali ham eng quyi darajada bo'ladi. Kuchsiz ideal bo'lmagan Boze-gazda $T = 0$ da deyarli barcha zarralar kondensatda bo'ladi (ya'ni $N_B - N_{BO} \ll N_{BO}$ – nol impulsli zarralar soni), $T > 0$ da esa zarrachalarning ko'p qismi hali ham nol impulsli holatda joylashadi. Bogolyubov tomonidan rivojlantirilgan zarralar o'rtasida itaruvchi o'zaro ta'sirga ega kuchsiz ideal bo'lmagan Boze-gaz nazariyasi shu fikrlarga asoslangan. Kuchli o'zaro ta'sirlashuvchi Boze-zarrachalar uchun hatto $T = 0$ da ham kondensatda joylashgan zarrachalarning konsentratsiyasi nisbatan kichik bo'ladi.

Boze-zarrachalar o'rtasidagi juft o'zaro ta'sirni tavsiflovchi obrazli gamiltonian BKSh-simon bozonli analogi quyida keltirilgan (3) tenglamaga o'xshash. O'rtacha maydon yaqinlashganda o'zaro ta'sirlashuvchi Boze-gazning juft gamiltoniani quyidagicha yozilishi mumkin:

$$H_B = \sum_{\vec{k}} [\tilde{\varepsilon}(k) c_{\vec{k}}^+ c_{\vec{k}} - \Delta_B(k) (c_{\vec{k}}^+ c_{-\vec{k}}^+ + c_{-\vec{k}} c_{\vec{k}} - B_{\vec{k}}^*)], \quad (3)$$

bunda $\tilde{\varepsilon}_B(\vec{k}) = \varepsilon(k) - \mu_B + V_B(0)\rho_B + \chi_B(\vec{k})$ – kvazizarralarning Xartri-Fok energiyasi, $\varepsilon(k) = \hbar^2 k^2 / 2 m_B$, $\Delta_B(\vec{k}) = -(1/\Omega) \sum_{\vec{k}'} V_B(\vec{k} - \vec{k}') \langle c_{-\vec{k}'} c_{\vec{k}'} \rangle$ – kogerentlik parametri, $\chi_B(\vec{k}) = (1/\Omega) \sum_{\vec{k}'} V_B(\vec{k} - \vec{k}') n_B(\vec{k}')$, $n_B(\vec{k}) = \langle c_{\vec{k}}^+ c_{\vec{k}} \rangle$ – zarralar soni operatori, $\rho_B = (1/\Omega) \sum_{\vec{k}'} n_B(\vec{k}')$, μ_B – erkin bozonlarning kimyoviy potentsiali, $c_{\vec{k}}^+(c_{\vec{k}})$ – to'liq vektorli bozonlarni hosil qilish (yo'q qilish) operatori \vec{k} , $B_{\vec{k}}^* = \langle c_{\vec{k}}^+ c_{-\vec{k}}^+ \rangle$, $V_B(\vec{k} - \vec{k}')$ – bozonlararo o'zaro ta'sir potentsiali.

Gamiltonian (3) Boze operatorlari uchun Bogolyubov almashtirishlari yordamida diagonallashadi:

$$\begin{aligned} c_{\vec{k}} &= u_k \alpha_{\vec{k}} - v_k \alpha_{\vec{k}}^+, c_{\vec{k}}^+ = u_k \alpha_{\vec{k}}^+ - v_k \alpha_{-\vec{k}}, \\ c_{-\vec{k}} &= u_k \alpha_{-\vec{k}} - v_k \alpha_{\vec{k}}^+, c_{-\vec{k}}^+ = u_k \alpha_{-\vec{k}}^+ - v_k \alpha_{\vec{k}}, \end{aligned} \quad (4)$$

bunda $\alpha_{\vec{k}}$ va $\alpha_{\vec{k}}^+$ – Boze kommutatsiyasi qoidalarini qanoatlantiruvchi bozonlarni yo'q qilish va hosil qilishning yangi operatorlari $[\alpha_{\vec{k}}, \alpha_{\vec{k}}^+] = 1$ hamda $[\alpha_{\vec{k}}, \alpha_{\vec{k}'}] = [\alpha_{\vec{k}}^+, \alpha_{\vec{k}'}^+] = 0$, u_k va v_k – shartni qanoatlantiruvchi moddiy funksiyalar

$$u_k^2 - v_k^2 = 1. \quad (5)$$

(4) tenglamani (3) tenglamaga qo'yib va (5) tenglamani hisobga olib, diagonallashgan gamiltonian hosil qilamiz:

$$H_B = W_0 + \sum_{\vec{k}} E_B(\vec{k}) (\alpha_{\vec{k}}^+ \alpha_{\vec{k}} + \alpha_{-\vec{k}}^+ \alpha_{-\vec{k}}), \quad (6)$$

bunda

$$W_0 = \sum_{\vec{k}} [E_B(\vec{k}) - \tilde{\varepsilon}_B(\vec{k}) + \Delta_B(\vec{k})B_{\vec{k}}^*] \quad (7)$$

Boze-suyuqligining asosiy holat energiyasi, $E_B(\vec{k})$ esa o‘zaro ta’sirlashuvchi bozonlarning uyg‘onish spektri, u quyidagicha aniqlanadi:

$$E_B(\vec{k}) = \sqrt{\tilde{\varepsilon}_B^2(\vec{k}) - \Delta_B^2(\vec{k})}, \quad (8)$$

bu esa o‘zaro ta’sirlashuvchi fermionlarning bunday uyg‘onish BKSh-simon spektridan farq qiladi.

O‘ta oquvchan Boze-suyuqligining mos parametrlari bog‘langan integral tenglamalar sistemasidan ularning o‘zaro moslashgan yechimlari yordamida aniqlanadi.

$$\Delta_B(\mathbf{k}) = -\frac{1}{\Omega} \sum_{\mathbf{k}'} V_B(\mathbf{k} - \mathbf{k}') \frac{\Delta_B(\mathbf{k}')}{2E_B(\mathbf{k}')} \coth \frac{E_B(\mathbf{k}')}{2k_B T}, \quad (9)$$

$$N_B = \sum_{\mathbf{k}} n_B(\mathbf{k}) = \sum_{\mathbf{k}} \left[\frac{\tilde{\varepsilon}_B(\mathbf{k})}{2E_B(\mathbf{k})} \coth \frac{E_B(\mathbf{k})}{2k_B T} - \frac{1}{2} \right], \quad (10)$$

$$\chi_B(\mathbf{k}) = \frac{1}{\Omega} \sum_{\mathbf{k}'} V_B(\mathbf{k} - \mathbf{k}') \times \left[\frac{\tilde{\varepsilon}_B(\mathbf{k}')}{2E_B(\mathbf{k}')} \coth \frac{E_B(\mathbf{k}')}{2k_B T} - \frac{1}{2} \right]. \quad (11)$$

O‘ta oquvchan Boze-suyuqligining $E_B(\mathbf{k})$ uyg‘onish spektri Fermi-suyuqligining BKSh-simon uyg‘onish spektridan keskin farq qiladi. (9), (10) va (11) tenglamalarning oddiy yechimini topish uchun $V_B(\mathbf{k} - \mathbf{k}')$ bozonlararo o‘zaro ta’sirning model potensialini sodda ajraluvchan shaklda tanlash mumkin.

$$V_B(\vec{k} - \vec{k}') = \begin{cases} V_{BR} - V_{BA} & \text{uchun } 0 \leq \varepsilon(k), \varepsilon(k') < \xi_{BA}, \\ V_{BR} & \text{uchun } \xi_{BA} \leq \varepsilon(k) \text{ yoki } \varepsilon(k') < \xi_{BR}, \\ 0 & \text{uchun } \varepsilon(k), \varepsilon(k') > \xi_{BR}, \end{cases} \quad (12)$$

bunda ξ_{BA} va ξ_{BR} – mos ravishda $V_B(\mathbf{k} - \mathbf{k}')$ ning tortishuvchi va itaruvchi qismlari uchun qirg‘ish parametrlari.

Model potensialini, (12) tenglama, kogerentlik parametri Δ_B , tortishuvchi bozonlar zichligi ρ_B va qayta normallashtirilgan kimyoviy potensial $\tilde{\mu}_B = -\mu_B + V_B(0)\rho_B + \chi_B(\mathbf{k})$ ni to‘liq hisoblash imkonini beradi hamda uch o‘lchamli (3D) o‘ta oquvchan Boze-suyuqligining uyg‘onish spektri shakli xususiyatlarini energetik tirqishli va tirqishsiz holatlar uchun bozonlararo bog‘lanish konstantasiga bog‘liq holda aniqlash imkonini beradi, $\gamma_B = \tilde{V}_B D_B \sqrt{\xi_{BA}}$ (bu yerda, $\tilde{V}_B = V_{BA} - V_{BR}[1 + V_{BR}I_R]^{-1}$, $I_R \simeq D_B[\sqrt{\xi_{BR}} - -\sqrt{\xi_{BA}}]$, $D_B = m_B^{3/2}/\sqrt{2}\pi^2\hbar^3$, $\xi_{BR} \gg \xi_{BA}$).

Ushbu model potensialidan foydalanib (9) va (10) tenglamalardagi yig'indini \mathbf{k} va \mathbf{k}' bo'yicha almashtirib ε bo'yicha integrallash orqali $E_B(\mathbf{k})$ uchun (8) ifodaga kiruvchi haroratga bog'liq $\tilde{\mu}_B$ hamda Δ_B parametrlarni aniqlash uchun quyidagi integral tenglamalarni olish mumkin:

$$\frac{2}{D_B \tilde{V}_B} = \int_0^{\xi_{BA}} \sqrt{\varepsilon} \frac{\coth \left[\frac{\sqrt{E_B(\varepsilon)}}{2k_B T} \right]}{E_B(\varepsilon)} d\varepsilon, \quad (13)$$

$$\frac{2\rho_B}{D_B} = \int_0^{\infty} \sqrt{\varepsilon} \left\{ \frac{\varepsilon + \tilde{\mu}_B}{E_B(\varepsilon)} \times \coth \left[\frac{E_B(\varepsilon)}{2k_B T} \right] - 1 \right\} d\varepsilon, \quad (14)$$

bunda

$$E_B(\varepsilon) = \sqrt{(\varepsilon + \tilde{\mu}_B)^2 - \Delta_B^2}. \quad (15)$$

Dissertatsiyaning **“Bozonli o'ta o'tkazgichga magnit maydonining kirish chuqurligi va uning past va yuqori haroratlarda haroratga bog'liqligi”** deb nomlangan uchinchi bobida o'ta o'tkazuvchanlikning ikki Boze-suyuqlikli modeli tavsiflangan. Legirlangan yuqori haroratli o'ta o'tkazuvchan kupratlarda magnit maydoni kirish chuqurligining xarakterli eksponensial va darajali haroratga bog'liqligi ko'rib chiqilgan. Ushbu YuHO'O kupratlarda London magnit maydoni kirish chuqurligining haroratga bog'liqligini sonli hisoblash natijalari keltirilgan va ularni mavjud eksperimental ma'lumotlar bilan taqqoslash amalga oshirilgan. O'ta oquvchan Boze-suyuqlikda kichik p impulsli elementar uyg'onishlar odatdagi gidrodinamik tovush to'lqinlariga mos keladi, ya'ni fononlardan iborat bo'ladi. Bunday kvazizarralarning energiyasi ularning impulsining chiziqli funksiyasidir:

$$\varepsilon = \vartheta p, \quad (16)$$

bunda, ϑ – suyuqlikdagi tovush tezligi.

Bunday o'ta oquvchan suyuqliklar nazariyasi 1940-1941-yillarda P.L. Kapitsa tomonidan suyuq geliyning o'ta oquvchanlik hodisasi kashf etilgandan so'ng L.D. Landau tomonidan ishlab chiqilgan. L.D. Landau g'alayonlanish tufayli oqayotgan suyuqlik energiyasining o'zgarishi manfiy bo'lishi kerakligini ko'rsatdi, chunki harakatlanayotgan suyuqlikning energiyasi kamayishi kerak. Bu shart quyidagi tengsizlik bilan ifodalanadi:

$$\varepsilon + p\vartheta < 0 \quad (17)$$

bunda ε – uyg'onish energiyasi, p – uyg'onish impuls, ϑ – suyuqlik oqimining tezligi.

Boze-suyuqligida bir vaqtning o'zida kvazizarralar harakatining ikki turi mavjud bo'lishi mumkin, ularning har biri o'zining effektiv massasi bilan bog'liq. Bunda bu harakatlardan biri "normal", ya'ni odatdagi yopishqoq suyuqlik harakatiga o'xshash xossalarga ega, ikkinchisi esa – o'ta oquvchan.

Mos ravishda, Boze-suyuqligining zichligi $\rho = \rho_n + \rho_s$ normal va o'ta oquvchan qismlarning yig'indisi ko'rinishida ifodalanishi mumkin, ularning har biri o'z tezligi – v_n va v_s bilan bog'langan. Boze-suyuqligida suyuqlik zichligining $T = 0$ bo'lganda normal qismi mavjud emas $\rho_n = 0$, ya'ni suyuqlik faqat o'ta oquvchan harakatni amalga oshirishga qodir. $T > 0$ da ρ_n kattalik quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$\rho_n = \frac{1}{3m_B^*} \int \left(-\frac{dn}{d\varepsilon} \right) p^2 d\varepsilon. \quad (18)$$

(16) ifodaga ko'ra, ρ_n dagi fonon hissasini aniqlashda (18) ga $\varepsilon = \vartheta p$ ni qo'yamiz. U holda quyidagiga ega bo'lamiz:

$$\rho_n = -\frac{1}{3\vartheta} \int_0^\infty \frac{dn}{dp} p^2 \frac{4\pi p^2 dp}{(2\pi\hbar)^3} \quad (19)$$

O'ta o'tkazgichlarning fenomenologik London nazariyasida magnit maydonning o'ta o'tkazgichga kirishining xarakterli chuqurligi temperaturaga bog'liq va quyidagicha aniqlanadi:

$$\lambda_L(T) = \sqrt{m^* c^2 / 4\pi\rho_s(T) e^{*2}} \quad (20)$$

bunda m^* – o'ta oquvchan zaryad tashuvchining effektiv massasi, c – yorug'lik tezligi, ρ_s – o'ta oquvchan zaryad tashuvchilarning zichligi, e^* – bunday zaryad tashuvchining zaryadi.

Gorter va Kazimir (GK) o'ta o'tkazuvchanlikning ikki suyuqlikli modelini va $\lambda_L(T) = \lambda_L(0)[1 - t^4]^{-1/2}$ (bu yerda $t = T/T_c$) harorat bog'liqligi uchun oddiy empirik formulani taklif qildilar, garchi bu empirik qonun mikroskopik asosga ega bo'lmagan. Ikki Boze-suyuqlikli modeliga muvofiq o'ta oquvchan Boze-suyuqlikka kondensatsiyalanadigan tortiluvchi bozonlarning zichligi quyidagicha aniqlanadi:

$$\rho_B = \rho_s(T) + \rho_n(T), \quad (21)$$

bunda ρ_s va ρ_n – mos ravishda o'ta oquvchan va Boze-suyuqligining normal komponentlarining zichligi. U holda, $T = 0$ da $\rho_s = \rho_B$ va $T = T_c$ da $\rho_n = \rho_B$ ekanligini e'tiborga olib, $0 \leq T \leq T_c$ harorat oralig'ida bozonli o'ta o'tkazgichlarda magnit maydonning kirish chuqurligi quyidagi munosabatdan aniqlanadi:

$$\lambda_L(T) = \sqrt{\frac{m_B c^2}{4\pi(\rho_B - \rho_n(T)) e^{*2}}} = \lambda_L(0) \left[1 - \frac{\rho_n(T)}{\rho_B} \right]^{-1/2}, \quad (22)$$

bunda $\lambda_L(0) = (m^*c^2/4\pi\rho_s(T)e^{*2})^{1/2}$, m_B – bozonli Kuper juftlarining massasi, $e^* = 2e$ – Kuper juftlarining zaryadi. Uch o‘lchamli Boze-suyuqligining normal komponentining zichligi quyidagi ifodadan aniqlanadi:

$$\rho_n(T) = -\frac{1}{3m_B} \int \frac{dn_B(p)}{dE_B(p)} p^2 \frac{4\pi p^2 dp}{(2\pi\hbar)^3}, \quad (23)$$

bunda $n_B(p) = [\exp(E_B(p)/k_B T) - 1]^{-1}$, Boze-taqsimot funksiyasi, $E_B(p) = \sqrt{(\varepsilon(p) + \tilde{\mu}_B)^2 - \Delta_B^2}$ o‘zaro ta’sirlashuvchi bozon kvazizarralarining uyg‘onish energiyasi, $\varepsilon(p) = p^2/2m_B$ massasi m_B va impulsi p bo‘lgan erkin bozonning kinetik energiyasi.

Kuchsiz bozon o‘zaro ta’sirida ($\gamma_B \ll 1$) uch o‘lchamli o‘ta oquvchan Boze-suyuqligining uyg‘onish spektri fononnikiga yaqinlashadi va quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi: $E_B(p) \approx \sqrt{2\varepsilon\Delta_B} = v_c p$, T_c dan past keng harorat $0 \leq T \leq T_c^*$ oralig‘ida $T \leq T_c^*$ da energetik tirqish $\Delta_g(T)$ ning yo‘qolishi hisobiga. U holda (23) tenglama qismlarga bo‘lib integrallashdan so‘ng quyidagi natijani beradi:

$$\begin{aligned} \rho_n(T) &= \frac{2}{3\pi^2 m_B \hbar^3 v_c(T)} \int_0^\infty \frac{p^3 dp}{\exp\left[\frac{v_c(T)p}{k_B T}\right] - 1} = \\ &= \frac{2(k_B T)^4}{3\pi^2 m_B \hbar^3 v_c^5(T)} \Gamma(4)\zeta(4), \end{aligned} \quad (24)$$

bunda $\Gamma(4) = 3!$, $\zeta(4) = \pi^4/90$, $v_c(T) = \sqrt{\Delta_B(T)/m_B}$ – o‘ta oquvchan bozon tashuvchilarning kritik tezligi. (24) ifoda $T \leq T_c^*$ bo‘lganda hosil bo‘lganligi uchun $(k_B T)^4$ ni $(k_B T_c^*)^4 T/T_c^{*4}$ ga almashtirishimiz mumkin. U holda (24) ni (22) ga qo‘yib va $\Delta_g(T)$ energetik tirqish T_c ga yaqin T_c^* haroratda yo‘qoladi deb faraz qilib, quyidagi ifodani olamiz:

